

**O‘QUVCHILARNI MA’NAVYIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA
O‘QITUVCHINING KASBIY MAHORATI****Ergashova Dinora Erkin qizi****Eshboyeva Shahnoz Bahrom qizi**

Termiz davlat pedagogika instituti talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘qituvchining kasbiy mahorati va uning o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash jarayonidagi o‘rni tahlil etilgan. O‘qituvchining shaxsiy fazilatlarini, pedagogik madaniyati, kommunikativ qobiliyati hamda innovatsion yondashuvlar o‘quvchilar dunyoqarashini shakllantirishda muhim omil sifatida yoritiladi. Shuningdek, maqolada zamonaviy ta’lim tizimida o‘qituvchining tarbiyaviy faoliyatini takomillashtirish yo‘llari haqida bayon qilingan

Kalit so‘zlar: ta’lim, tarbiya, o‘qituvchi, kasbiy mahorat, ma’naviyat, axloq, pedagogik madaniyat, innovatsiya, shaxs, qadriyat.

Bugungi kunda ta’lim tizimi nafaqat bilim berish, balki yosh avlodni ma’naviy-axloqiy jihatdan barkamol inson sifatida voyaga yetkazishni ham o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. O‘qituvchi bu jarayonning bosh ijrochisi bo‘lib, uning kasbiy mahorati va shaxsiy fazilatlarini o‘quvchilar tarbiyasida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. O‘quvchi o‘z ustozini kuzatadi, uning so‘zi, xulqi va odobidan ibrat oladi. Shu bois, o‘qituvchi o‘zini doimo takomillashtirib borishi, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni egallashi lozim.

Bugungi globallashtirish davrida yosh avlodni har tomonlama yetuk, bilimli va ma’naviy-axloqiy barkamol shaxs sifatida tarbiyalash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. O‘quvchilarga ma’naviy-axloqiy tarbiya berish nafaqat ularning shaxsiy rivojlanishiga, balki jamiyatning barqarorligiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Ta’lim jarayonida ushbu tarbiya shakllanishining samaradorligini oshirish, xalq og‘zaki ijodi va milliy qadriyatlardan foydalanish orqali yanada kuchaytirilishi mumkin. Ushbu maqolada ma’naviy-axloqiy tarbiyaning o‘quvchilar rivojlanishidagi o‘rni, uning ta’lim jarayonidagi ahamiyati va samaradorligini oshirish usullari haqida ham bayon qilingan.

Kasbiy mahorat — bu o‘qituvchining nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikmalari, psixologik tayyorgarligi, nutq madaniyati va tarbiyaviy qobiliyatlarining uyg‘unligidir. Ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayonida bu jihatlarni bir butunlikda namoyon bo‘ladi [1].

Ma’naviy-axloqiy tarbiya tushunchasi va uning ahamiyati:



Ma'naviy-axloqiy tarbiya insonning ichki dunyosini boyitish, unga oliy qadriyatlarni singdirish jarayoni bo'lib, bu jarayonda o'quvchilar hayotining asosiy yo'nalishlari shakllanadi. O'zbek xalqining boy an'alariga asoslangan ma'naviy-axloqiy tarbiya yosh avlodning odob-axloq me'yorlariga rioya qilishi, insoniylik va vatanparvarlik ruhida kamol topishiga xizmat qiladi. Bu borada mashhur pedagog va psixologlar, jumladan, J.J. Russo, L.N. Tolstoy, A.S. Makarenko va K.D. Ushinskiylarning asarlarida axloqiy tarbiyaning inson kamolotiga ta'siri keng yoritilgan.

O'zbek xalqining boy an'alariga asoslangan ma'naviy-axloqiy tarbiya yosh avlodning odob-axloq me'yorlariga rioya qilishi, insoniylik va vatanparvarlik ruhida shakllanishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish, rivoyatlar, dostonlar va maqollar orqali axloqiy tushunchalarni o'quvchilarga singdirish tarbiya jarayonining samaradorligini oshiradi[10].

O'quvchilarning rivojlanishida ma'naviy-axloqiy tarbiyaning o'rni:

Ma'naviy-axloqiy tarbiya o'quvchilarga quyidagi jihatlar bo'yicha ijobiy ta'sir ko'rsatadi:

-Shaxsiy fazilatlarni shakllantirish – halollik, adolat, sabr-toqat, mas'uliyat va mehnatsevarlik kabi xislatlarni rivojlantirish.

-Axloqiy qarashlarni rivojlantirish – yaxshi va yomonni farqlash, ijtimoiy axloqiy normalarga rioya qilish.

-Mustaqil fikrlash qobiliyatini oshirish – fikrlar xilma-xilligi va tanqidiy tafakkur asosida shaxsiy qarashlarni shakllantirish.

-Jamiyatda o'z o'rnini topish – ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish va yetakchilik qobiliyatlarini shakllantirish.

- Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish – milliy madaniyat, an'analar va xalq merosiga sodiqlik ruhida tarbiyalash.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish usullari

1. Ta'lim tizimida ma'naviy qadriyatlarni singdirish

-Tarix, adabiyot, falsafa va diniy ta'lim fanlari orqali ma'naviy qadriyatlarni o'quvchilarga etkazish;

- Badiiy asarlar va og'zaki xalq ijodi namunalarini o'rganish orqali axloqiy qarashlarni shakllantirish.

2. Oila muhitining roli.

- Oilada milliy qadriyatlarni mustahkamlash va ota-onalar tarbiyasining ahamiyatini oshirish;

- Ota-onalar va farzandlar o'rtasida samimiy muloqotni rivojlantirish.

3. Jamoatchilik va muhit ta'siri.



Learning and Sustainable Innovation

- Maktab va mahalla muhitida ma'naviy tarbiya masalalariga e'tibor qaratish.
- Yoshlar tashkilotlari, kutubxonalar va madaniy muassasalar orqali tarbiya jarayonini rivojlantirish.
- 4. Zamonaviy texnologiyalar va axborot resurslari imkoniyatlaridan foydalanish.
- Ma'naviy-axloqiy tarbiya bo'yicha audio va video materiallar, elektron darsliklardan foydalanish.

Tarbiya va ta'limni bir-biridan alohida ajratib bo'lmaydi, bu ikki jarayon o'zaro uyg'un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma'naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi. O'zbekistonda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda[12].

Tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirishda oila, maktabgacha ta'lim, umumiy ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko'tarishni taqozo etadi[9].

Vatanga sadoqat, burch va mas'uliyat, tashabbuskorlik va boshqa fazilatlar yoshlar ongida nazariy tushunchalar sifatida qolib ketgani holda uning tabiatida amaliy odatlarga aylanmayapti. Buning oqibatida ularning ushbu fazilatlar haqidagi so'zlari bilan amallari orasida tafovut namoyon bo'lmoqda, bu esa har yili mustaqil hayotga kirib kelayotgan yigit-qizlarning hayotda o'z o'rinlarini topishlarida bir qator muammolarni yuzaga keltirmoqda. Ayrim o'quvchi-yoshlarda yuksak maqsadlarning shakllanmaganligi, o'zini o'zi o'qishga safarbar qilish, iroda, matonat, tirishqoqlik, harakat fazilatlarini yetarli rivojlanmaganligi ta'lim sifatiga ham zarar ko'rsatmoqda.

Ma'naviy tarbiya sohasida o'qituvchilarning faoliyatini metodik ta'minlovchi o'quv materiallari, shu jumladan, ma'naviy tarbiya sohasiga oid metodik qo'llanmalar, o'quvchilar uchun zarur darsliklar yetarli emas[13].

Insonning mohiyati uning ma'naviyati va xulqi bilan belgilanadi. Shuning uchun ham ma'naviyat va axloq doimo birga yuradi. Bu bejiz emas. Zero, ma'naviyat insonning o'z maqsadlarini anglashiga, axloq ana shu maqsadlarga erishishda inson xulqi qanday bo'lishini anglashga xizmat qiladi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya esa yoshlarni hayotda o'z oldiga to'g'ri, aniq, yaxshi maqsadlarni qo'yish va shu - maqsadlarni amalga oshirishning go'zal xulqlarini o'rgatadi.



Boshqacha qilib aytganda, ma'naviy tarbiya - o'quvchining ichki olamini yaratadi, axloqiy tarbiya - ana shu ichki olamni tashqi olam bilan bog'lashga o'rgatadi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya shuning uchun ham o'zaro bog'liq. Biri birini taqozo qiladi. Zero, odamning yaxshi-yomonligi sabablari uning qo'l-oyog'i, ko'zlari, tili, gavdasi qandayligiga emas, balki uning ichki ma'naviyatiga bog'liq. O'qituvchi, murabbiy, otanonalar ana shu pedagogik qoidani yaxshi anglab olishlari zarur[8].

Shuningdek, ma'naviy tarbiya metodikasini o'rganishlari, oila, sinfda, maktabdagi tarbiya ahvolini tahlil qilishlari, ilg'or pedagogik meros hamda yangi pedagogik texnologiyalarni amalda qo'llay bilish kompetensiyalarini egallashlari lozim. Buning uchun ular quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi kerak:

- ota-ona va o'qituvchi-tarbiyachilar ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishning nazariy va amaliy asoslari haqida chuqur bilimga ega bo'lishlari;
- ma'naviy tarbiyani tashkil qilish jarayonida xalq pedagogikasi, donishmandlarning pedagogik merosi, hamda milliy an'ana va urf-odatlarining tutgan o'rni, tarbiyaviy ahamiyati va imkoniyatlari haqida keng ma'lumotga ega bo'lishlari;
- tarbiyaviy ishlarda maktab, o'quvchilarning jamoat tashkilotlari faoliyatidan samarali foydalanish yo'llarini bilishlari;
- oila, mahalla va jamoatchilik bilan hamkorlikda bolalarni qanday tarbiyalash shart-sharoitlari haqida bilimlarga ega bo'lmog'i;
- har bir o'qituvchi dars hamda sinfdan tashqari ishlar jarayonida o'quvchilarni ma'naviy tarbiyalash metodikasini chuqur o'rgangan bo'lishi;
- o'quvchilarning tarbiyalanganlik darajalarini aniqlay olishlari;
- ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni rejalashtirayotganda bolalarning individual xususiyatlarini, yoshi, bilim darajasi, dunyoqarashi, tarbiyalanganlik darajasi, motiVatsiya va ruhiy holatlarini alohida e'tiborga olishlari; har bir tarbiyaviy hodisa, voqea va masalaga ijodiy yondashish, samarali metod va Shakllardan foydalanish orqali tarbiyaviy tadbirlarning natijadorligiga erishish;
- ma'naviy-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish uchun o'z bilimini muntazam ravishda boyitib borish, shuningdek, ma'naviy-tarbiya metodikasi bilan uzviy bog'liq bo'lgan pedagogika nazariyasi va tarixi, pedagogik mahorat, o'qituvchi odobi, etika, estetika, tarix, falsafa, psixologiya, adabiyot, ekologiya, lalar fiziologiyasi, anatomiyasi va gigiyenasi kabi fanlardan xabardor bo'lishlari kerak [6].

Ma'naviy tarbiya-yuksak ma'naviyatni tarbiyalash vositasi, muayyan shaxs, jamoa, muayyan guruh, jamiyat, millatda jismoniy barkamollik, ruhiy, axloqiy, ma'naviy yetuklik kabi sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy ta'lim-tarbiya jarayonini ifodalovchi tushuncha. Insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan ma'naviy



xususiyatlarni tarbiyalash uning eng asosiy qadriyat sifatidagi mohiyatini ta'minlaydigan qadimgi va abadiy qadriyatdir[14].

Kasbiy mahorat deganda nafaqat darsni samarali o'qitish ko'nikmalari, balki o'z shaxsida namunaviy axloq, nutq madaniyati, muloqot etikasi, sabr-toqat, mehr-oqibat, milliy g'urur va zamonaviy tafakkurni uyg'unlashtira olish qobiliyati tushuniladi. Zamonaviy ta'lim jarayonida o'qituvchining roli ko'p qirrali tus olmoqda: u bilim beruvchi, tarbiyachi, psixolog, yetakchi va maslahatchi sifatida faoliyat yuritadi. Shu boisdan, o'qituvchining kasbiy mahoratini muntazam rivojlantirish, ma'naviy yetukligini oshirish, pedagogik innovatsiyalarni o'zlashtirish va raqamli savodxonlikni kuchaytirish zarur[7].

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchining kasbiy mahorati — bu ta'lim sifati, tarbiya samaradorligi va jamiyat ma'naviy yuksalishining poydevoridir. Ana shu mahorat orqali o'qituvchi o'quvchilar qalbiga nur, tafakkuriga fikr, hayotiga ma'no olib kiradi. O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash jarayonida o'qituvchining kasbiy mahorati hal qiluvchi omil hisoblanadi. Chunki o'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki shaxs kamolotiga yo'l ko'rsatuvchi, axloqiy qadriyatlarni singdiruvchi, ijtimoiy ongni shakllantiruvchi yetakchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avloniy A "Turkiy guliston yoxud axloq" – Toshkent: O'zbekiston, 1992.
2. Karimov I.A "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch"–Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
3. Olimov Sh.Sh "Ma'naviy-axloqiy tarbiya asoslari"-Toshkent: 2022.
4. Nizamiddin O'. Usmanov "Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini milliy g'oya targ'ibotiga tayyorlash texnologiyasi"- Toshkent: 2021.
5. Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida
6. X.Ibraimov, M.Quronov "Umumiy pedagogika" darslik-sahhof-2023
7. Mohigul Shavkatovna Xolova, & Yakub Saydulloyevich Ochilov (2021). PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE DEVELOPMENT OF HEALTHY THINKING IN STUDENTS. Academic research in educational sciences, 2 (6), 54-57. doi: 10.24411/2181-1385-2021-01083
8. Saydulloyevich, O. Y., & Kizi, J. N. Z. (2022). Methods Of Developing Labor Education At School And In The Family. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(3), 57-60.



9. Saydulloyevich, Y., & Kizi, N. (2022). Analysis of pedagogical problems of gender differences in resolving conflict situations. *International Scientific Research Journal*, 3(3), 154-157.
10. Saydulloyevich, O. Y., & Raxmonovich, I. R. Factors Of Orientation Of Students To The Teaching Profession. *JournalNX*, 317-319.
11. Saidulloyevich, Y. O. (2022). Comments and explanations on the works of the great mutaffakkir imam ghazali. *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)*, 3(12), 241-244.
12. Saydulloyevich, Y. O., & Abdullaevna, M. M. (2022). Improvement of methodology of use of national ananas in teaching pedagogical sciences in the system of professional education.
13. Saydulloyevich, O. Y. (2022). The educational and moral significance of the spiritual heritage of Imam ghazali. *European Scholar Journal*, 3(6), 153-156.
14. Saydulloyevich, O. Y. (2023). Samples of the Wisdom of Imam Abu Hamid Ghazali Quoted in the Great Works. *World Bulletin of Social Sciences*, 25, 18-21.